

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR
MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHDA
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKADAN FOYDALANISH**

M.Marufova

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda pedagogic diagnostikadan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan

Kalit so‘zlar: Maktabgacha bola, matematika, rivojlanish, vosita, tushuncha, shakllantirish, tashxislash, pedagogik, shart-sharoitlar.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini isloh qilish, hozirgi zamon talablari va standartlari asosida mazkur soha tarmog‘ini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini tatbiq qilish, shuningdek, ta’lim natijalarini baholashning xalqaro amaliyotini joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar qamrovining 30 foizdan 90 foizgacha o‘sganligi didaktik jarayonlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishiga barcha sharoitlar yaratilganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bolalarni maktabga tayyorlash, tarbiyalanuvchilarning intellektual, ruhiy, estetik, jismoniy, ma’naviy rivojlanishini ta’minlashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish ehtiyoji sezilmoqda va pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlarga nisbatan zaruratni yuzaga keltirmoqda.

Bolalarga matematikadan ta’lim berish va maktabgacha ta’limdagi o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri — bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir.

Bolalarda matematik tushunchalarini rivojlantirish uchun pedagogika, falsafa, mantiq, psixologiya va boshqa bir qator fundamental fanlarda o‘rganiladigan xususiyatlar va qonuniyatlarni bilish kerak.

Bolalardagi matematik bilim hayotdan ajralmagan holda dunyoni chuqurroq, to‘laroq o‘rganishga imkon yaratadi. Bunda bolalarda matematik tushunchalardan oldin mavjud bo‘lgan g‘oya katta ahamiyatga egadir. Har bir yangilikdan oldin g‘oya

paydo bo‘ladi, keyin shu yangilik ham kelib chiqqan natijalarni isbotlash uchun umumiy uslubni anglashga va shu natijani umumiy ifodalashga harakat qiladi. Matematik masalalarni echish jarayoni o‘zining mohiyati bo‘yicha mustaqil fikrlashni talab qiladi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo‘ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va maktabgacha ta’limdan boshlanadi. Har bir mustaqil echilgan masala, tuzilgan masala va masalani echish jarayonida uchragan qiyinchiliklarni mustaqil engishida matonat shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Ruhshunoslarning fikriga qaraganda, matematik tushunchalarni shakllantirish muammosi murakkab va serqirralidir. O‘zining mohiyati bo‘yicha har bir fikr ijodiy, past yoki yuqori darajaning mahsulidir. Har bir fikr — izlanish va yangilikni yaratish hamda uni ommalashtirishga qaratilgan mustaqil harakatdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik diagnostika pedagogik faoliyatni kuchaytirishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik diagnostikadan foydalanish muhim va zaruriy bo‘lib hisoblanadi, chunki, pedagogik diagnostika maktabga tayyorgarlik ko‘rayotgan bolaning shaxsiy, intellektual, jismoniy va estetik rivojlanish darajasini o‘rganadi, kezi kelganda, korreksiya talab jihatlari inobatga olinadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayon ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan, pedagogik faoliyat ta’sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan tizimdir. Bu tizimni boshqarishda va uning sifatini yuqori pog‘onaga yuksaltirishda yangi yo‘llarni topish, ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma’naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachi tamonidan tashxislash metodikalaridan foydalanib ulardagi mavjud iqtidorlar aniqlanib boriladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda matematik bilimlarga va ularni egallashga qiziqish o‘yg‘otish zarur. Bu bolaning maktabda matematikani muvaffaqiyatli o‘rgatishning garovi bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020-yil 23 sentabr.
2. <http://kommersent.uz.yangiliklar> Shavkat Mirziyoyev-70-foiz-bilim 5yoshgacha singdirish (2018-yil 9-avgust)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son farmoni
4. Djanpeisova G.E., Xodjimuratova B.N. Matematik tasavvurlarini shakllantirish. T.: “Tafakkur”, 2020.
5. Djanpeisova G.E. Matematik tasavvurlarni shakllantirish. Darslik. T.: Tafakkur, 2021.
6. Xasanboyeva.O.U.va boshqalar. «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi».T.,«Ilm ziyoy», 2006.